



“GO‘RO‘G‘LI” TURKUMIDAGI DOSTONLARDA NASIHAT-VASIYAT (DIDAKTIK MONOLOG) MEKANIZMINING TIPOLOGIK TAHLILI

Z.V.Teshaboyeva,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i8.1769>

MAQOLA HAQIDA/O'STAT'YE

Qabul qilindi: 18-may 2026-yil

Tasdiqlandi: 21-may 2026-yil

Jurnal soni: 18-B

Maqola raqami: 52

KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

nasihat-vasiyat, didaktik monolog,
“Go‘ro‘g‘li”, pedagogik mexanizm,
ma'naviy-axloqiy tarbiya, ishonitirish
metodi, tipologiya

ANNOTATSIIYA/АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning eng keng tarqalgan badiiy-pedagogik mexanizmi – nasihat-vasiyat (didaktik monolog) – tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi – nasihat-vasiyat parchalarining doston matmlaridagi barqaror turlarini aniqlash va ularni pedagogika nazariyasi bilan nazariy bog'lashdir. Tadqiqot ob'ekti sifatida olti doston (“Avazxonning o'limga hukm etilishi”, “Yunus pari”, “Xiramon Dali”, “Qirg' yigit bilan qirg' qiz”, “Zulfizar”, “Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi”, “Sarvinov”) tanlandi. Natijada nasihat-vasiyatning yetti aniq tipologik turi aniqlandi: safar oldi nasihati, hokimiyat/vazifa topshirish nasihati, nikoh nasihati, vasiyat, ustoz-shogird nasihati, jang oldi da'vati va o'z-o'zini tanqid nasihati. Har bir tur ijtimoiy maqom, murojaat yo'nalishi va hissiy-funksional ustuvorlik mezonlari bo'yicha tasniflandi. Xulosa qilinadiki, nasihat-monolog kognitiv, emotsional-qiymat va xulq-atvor funksiyalarini birlashtiruvchi to'laqonli tarbiyaviy vosita bo'lib, uning barqaror badiiy-shakliy belgilari (buyruq mayli, refren, shaxsiylashtirilgan murojaat) pedagogik samaradorligini oshiradi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 18 May 2026

Approved: 21 May 2026

Volume: 18-B

Paper number: 52

KEYWORDS

advice-testament, didactic monologue,
“Go‘ro‘g‘li”, pedagogical mechanism,
moral education, persuasion method,
typology

ANNOTATION

This article analyzes the typology of the most widespread artistic-pedagogical mechanism of moral education in the “Go‘ro‘g‘li” epic cycle — the didactic monologue (advice-testament). The research aim is to identify stable types of admonitory passages in the doston texts and to theoretically connect them with pedagogy. The methodology involved a purposeful re-reading of six dastans through the lens of the didactic monologue. As a result, seven typological kinds of admonition were identified: pre-journey advice, power-transfer advice, marriage advice, deathbed testament, mentor-disciple advice, pre-battle exhortation, and self-critical advice. Each type was classified by social status, address direction, and emotional-functional dominance. It is concluded that the didactic monologue unites the cognitive, emotional-value, and behavioral functions of upbringing.

Kirish. “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirishda bir nechta barqaror badiiy-pedagogik mexanizmlarni ta'kidlash mumkin. Ularning eng keng tarqalgani va mazkur maqolaning predmetini tashkil etgani – nasihat-vasiyat, ya'ni bir qahramonning ikkinchisiga qaratilgan, uzaytirilgan, to'g'ridan-to'g'ri axloqiy-amaliy ko'rsatma shaklidagi she'riy yoki nasriy monologidir. Bunday parchalar dostonlarda odatda voqeaning markaziy burilish nuqtalarida – safarga chiqish, hokimiyatni topshirish, nikoh, vafot oldi va jang oldi kabi hal qiluvchi lahzalarda — joylashgan bo'lib, bu ularning tasodifiy emas, kompozitsion jihatdan rejalashtirilgan tarbiyaviy vosita ekanini haqida guvohlik beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy pedagogika fanida xalq og'zaki ijodidagi axloqiy-tarbiyaviy vositalarning ichki tuzilishini pedagogik terminologiya bilan tizimli bog'lash masalasi yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu maqolada birinchi marta “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi nasihat-vasiyat parchalari maxsus, maqsadli prizma orqali qayta ko'rib chiqilib, ularning yetti tipologik turi aniqlanadi va bu tipologiya B.Ziyomuhammadov hamda A.Xoliqovning pedagogika nazariyasidagi ishonitirish metodi konsepsiyasi bilan nazariy jihatdan bog'lanadi.

Nasihat-vasiyat mexanizmi – “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning badiiy-pedagogik mexanizmlari tizimida olti mexanizmdan bittasidir (qolgan beshtalasi: ibrat-andoza, sinov, antiteza, ramziy-mifopoetik obrazlar va yakuniy mukofotlanish mexanizmlari). Ushbu olti mexanizm ichida nasihat-vasiyat alohida o'ringa ega, chunki u so'z orqali, bevosita va to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi yagona mexanizm bo'lib, qolgan beshtalasi bilvosita (amal, sinov, qiyoslash, ramz yoki oqibat orqali) ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli nasihat-monologning tipologik tuzilishini alohida, chuqur tahlil qilish butun mexanizmlar tizimini tushunishning metodologik asosini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot uchun “Go‘ro‘g‘li” turkumining olti nashri – “Go‘ro‘g‘li”ning tug'ilishi” (M.J.Po'ltkan aytuvi, 1967), “Yunus pari” (M.J.Po'ltkan aytuvi, 1967), “Avazxonning o'limga hukm etilishi” (F.Yo'ldosh o'g'li aytuvi), “Go‘ro‘g‘li: O'zbek xalq dostonlari” to'plami (R.Yusuf o'g'li aytuvi, 2006 – “Xiramon Dali” va “Qirg' yigit bilan qirg' qiz” dostonlari) hamda “Go‘ro‘g‘li dostonlari” to'rt jildligining 2-jildi (R.Yusuf o'g'li aytuvi, 1997 – “Zulfizar”, “Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi”, “Sarvinov” dostonlari) – manba sifatida olindi.

Uslub sifatida qiyosiy-tipologik tahlil qo'llanildi: topilgan nasihat parchalari uch mezon bo'yicha tasniflandi – a) nasihat beruvchining ijtimoiy maqomi (yuqori yoki teng avtoritet), b) murojaat yo'nalishi (yakka yoki jamoaviy) va v) hissiy-funksional ustuvorlik (kognitiv, emotsional-qiymat yoki xulq-atvorga yo'naltirilgan). Nazariy asos sifatida B.Ziyomuhammadovning “Pedagogika” darsligidagi og'zaki uslublar tasnifi va A.Xoliqovning “Pedagogik mahorat” darsligidagi ishonitirish metodi hamda notiqlik san'ati nazariyasi olindi, ular tadqiqotning kognitiv, emotsional-qiymat va xulq-atvor komponentlaridan iborat uch qismli ma'naviy-axloqiy tarbiya modeliga moslashtirilgan holda qo'llanildi.

Natijalar. Nazariy asos: didaktik monolog pedagogika fanida. Nasihat-vasiyatni pedagogik hodisa sifatida tahlil qilishdan oldin, uning umumnazariy asosini aniqlash lozim. Pedagogika fanida ta'lim-tarbiya usullari, bilimlarni uzatish va qabul qilish xususiyatiga qarab, uch guruhga bo'linadi: “so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliy” [1, 102-b.], bular orasida og'zaki (so'z orqali) uslublar – “hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar” – alohida o'rin tutadi: “Bu uslublarni qo'llashda o'qituvchi so'z vositasida o'quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o'quvchilarni eslatib, eslab qolish orqali qabul qiladilar” [1, 102-b.]. Xususan, “ma'ruza” atamasining ta'rifi nasihat-monolog mexanizmining tuzilishiga aynan mos keladi: “Ma'ruza – bilimni so'z bilan ifodalash uslublaridan biri sifatida beriladigan bilimlarni og'zaki bayon qilishni ko'zda tutib, o'z hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, obrazli isbotlash, tasniflash, ta'riflar berish, tizimga keltirish, umumlashtirish kabi pedagogik usullardan foydalaniladi” [1, 102–103-b.] – “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi uzaytirilgan pand-nasihat parchalari xuddi shu tuzilishga (mantiqiy izchillik, obrazli dalillash, umumlashtiruvchi xulosa) ega.

Didaktik monologning aynan nima uchun samarali ekanini tushuntirishda A.Xoliqovning “Pedagogik mahorat” darsligi alohida qimmatga ega. U ishonitirish metodining ta'sir doirasini aniq belgilaydi: “O'quvchilarni ishonitirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi fikr-mulohazalari ta'sirchan nutq orqali o'quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvorga, xatti-harakatiga ta'sir etadi va uni qisman o'zgartiradi” [2, 64-b.]. Bu ta'rif ma'naviy-axloqiy tarbiyaning uch komponentli (kognitiv, emotsional-qiymat, xulq-atvor) modeliga deyarli aynan mos keladi. Ayniqsa muhimi, Xoliqov notiqlik san'atining uch qonuniyatini alohida ajratadi: “tinglovchiga tushuntirish (ma'lum bir g'oyani); tinglovchining tafakkurini uyg'otish (fikrini, ongini, maqsadini);

tinglovchini o'ziga jalb qilish (huzur-halovat va qoniqlik hissiini uyg'otish asosida)" [2, 176-b.] – bu uch qonuniyat, pedagogika fanida mustaqil ravishda shakllangan bo'lsa-da, nasihat-monologning xalq dostonchiligidagi tuzilishiga deyarli izomorf holda mos keladi: tushuntirish (kognitiv), tafakkur va his-tuyg'uni uyg'otish (emotsional-qiymat), tinglovchini o'ziga jalb qilish orqali xulq-atvorga ta'sir (xulq-atvor).

Ishontirish metodining psixologik mexanizmi Xoliqov tomonidan yana ham chuqurroq ochib beriladi: u nutq orqali ta'sir ko'rsatishning uchta o'zaro bog'liq turini ajratadi – "o'zaro fikr almashish yo'li bilan ta'sir ko'rsatishning ko'rib chiqilgan asosiy turlari — o'quvchini ishontirish, o'quvchi ongiga ta'sir etish, taqlid qilish – bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan psixologik xususiyatlardir" [2, 66-b.] – "taqlid qilish"ning bu qatarga kiritilishi nasihat-monolog mexanizmining ibrat-andoza (taqlid) mexanizmi bilan nazariy jihatdan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi: nasihat so'z orqali, ibrat esa amal orqali ta'sir ko'rsatada, ikkalasi ham yagona ishontirish tizimining qismlaridir. Nutqiy ta'sirning kognitiv-emotsional tarkibi esa yana ham aniqroq ifodalanadi: "Bilish, anglash, ekspressiv (his-tuyg'uga berilish holati), ijtimoiy an'anaviy muloqot, inson holatini so'zsiz tushunish, dilkashlik o'qituvchining pedagogik faoliyatida uchraydigan doimiy takrorlanib turadigan kommunikativ munosabatlarning turlaridir" [2, 72-b.] – "bilish/anglash" va "ekspressiv" tushunchalarining bu yerda yonma-yon qo'yilishi kognitiv-emotsional-xulq-atvor modelini yana bir bor tasdiqlaydi. Nihoyat, og'zaki uslublar maxsus tarbiyaviy (axloqiy, nafaqat bilim beruvchi) maqsadda ham qo'llanilishi alohida ta'kidlanadi: "...o'quvchilar bilan so'zlashishni biladi, tarbiyaning suhbat, ma'ruza, hikoya qilish kabi usullaridan o'rinni foydalanadi" [2, 123-b.] – bu orqali suhbat-ma'ruza-hikoya uslublari faqat bilim berish (ta'lim), balki axloqiy tarbiya (tarbiya) vazifasini ham bajarishi mumkinligi alohida qayd etiladi.

Didaktik monolog va nasihat o'rnatidagi terminologik bog'liqlik ham e'tiborga loyiq: "Va'z" so'zi arab tilidan pand-nasihat ma'nosini beradi. Va'z aytuvchi, nutq so'zlovchi shaxs Voiz deb atalgan. Voizlik san'ati tinglovchining, jamoaning ongiga, his-tuyg'usiga ta'sir etish mahorati bo'lib" [2, 178-b.] – bu etimologik bog'liqlik orqali "Go'ro'g'li" turkumidagi nasihat-vasiyat an'anasi Sharq mumtoz ritorika va voizlik san'ati bilan uzviy aloqada ekanini ko'rsatadi. Shunday qilib, quyida tahlil qilinadigan yetti turdagi nasihat-vasiyat tasodifiy badiiy bezak emas, balki zamonaviy pedagogika fani tomonidan ham tan olingan, kognitiv, emotsional-qiymat va xulq-atvor funksiyalarini birlashtiruvchi to'laqonli tarbiyaviy vosita sifatida ko'rib chiqiladi.

Birinchi tur – safar oldi nasihati: xavfsizlik va xulq-atvor ko'rsatmalari. Bu tur nasihat qahramon xatarli safarga chiqishdan oldin berilib, ko'pincha amaliy xavfsizlik ko'rsatmalari bilan axloqiy-emotsional ko'rsatmalarni birlashtiradi. "Avazxonning o'limga hukm etilishi" dostonida Avazxonning tarbiyachi onasi ("ena") uni tong otmasdan Chambildan qochishga undaydi: "Bolam sening siru holing bilganman, seni jo'natmak bo'p bunda kelganman, bilgan nasihatim senga berganman, tong otmayin mingin otning beliga" [3, 33-b.]. Bu nasihat vaziyat taqozosiga ko'ra qisqa, amaliy va zudlik bilan bajarilishi lozim bo'lgan ko'rsatmalardan iborat. Bunga qarshi, "Zulfizar" dostonida Go'ro'g'lining Avazxonga bergan safar oldi nasihati ancha keng, umumlashgan axloqiy kodeks shaklida beriladi – "har nokasni do'st bilmagin", "g'ariblar holiga kirguvchi bo'lma" kabi umumiy hayotiy tamoyillar orqali [4, Zulfizar, 187-188-b.]. Ikki misolning qiyosi orqali shuni ko'rsatish mumkinki, safar oldi nasihatining ichki tasnifi ham mavjud: vaziyatga bog'liq, amaliy-tezkor nasihat (xavfsizlik ko'rsatmalari) va umumlashgan, uzoq muddatli axloqiy-didaktik nasihat (hayot kodeksi) – bularning birinchisi ko'proq xulq-atvor, ikkinchisi ko'proq kognitiv-qiymat komponentiga yo'naltirilgan.

Ikkinchi tur – hokimiyat va vazifa topshirish nasihati: mas'uliyat kodeksi. Bu tur nasihat rahbar o'z vazifasini (hokimiyatni, qo'mondonlikni) boshqa kishiga vaqtinchalik topshirayotganda beriladi va odatda eng batafsil, ko'p bandli nasihat turini tashkil etadi. Klassik namunasi – Go'ro'g'lining Xoldorxonga Chambilni boshqarishni topshirayotganda bergan nasihati: "Dushman kelsa, ayamaskan urgaysan... Chambilbelga hokim bo'lib turgaysan" [5, Qirg'yigit bilan qirg'iz, 106-b.]. Shu turdagi yana bir namuna "Avazxonning o'limga hukm etilishi" dostonida uchraydi: Rum shohi o'z o'g'li Qosimxonni Avazxonga hamroh va qo'mondon qilib tayinlar ekan, unga keng qamrovli nasihat beradi: "Men aytayin senga pandu nasihat, senga yo'ldosh bo'lsin Avaz vallahat... to o'lgancha yaratganga rost bo'lsin, xizmat qilib Avazxonga do'st bo'lsin, maslahatman uning yo'lga yurgin, lashkarboshi bo'lib Chambilga borgan" [3, 90-b.] – bu nasihatda mas'uliyat faqat harbiy-ma'muriy vazifa (lashkarboshilik) bilan cheklanmaydi, balki axloqiy ko'rsatma (halollik, do'stlik, til-odob) bilan uzviy birlashtiriladi. Ikkala misol ham shuni

ko'rsatadiki, hokimiyat topshirish nasihati doimo ikki qatlamli tuzilishga ega: (a) aniq, vazifaviy ko'rsatmalar va (b) umumiy axloqiy tamoyillar – bu ikki qatlamning birlashuvi rahbarlikni faqat ma'muriy emas, avvalo axloqiy mas'uliyat sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Uchinchi tur – nikoh nasihati: oila burchi kodeksi. Bu tur nasihat qiz (yoki o'g'il) oila qurish arafasida ota-ona tomonidan berilib, kelajakdagi er-xotin munosabatlarning axloqiy me'yorlarini belgilaydi. "Zulfizar" dostonida qizining Avazxonga turmushga chiqishi arafasida, Hashtarxon podshohi ikki tomonlama nasihat beradi: avval qiziga ("Keksarib qartaygan ota-enangni kelib-ketib holin so'rgin, chirog'im" [4, Zulfizar, 216-217-b.]), so'ng kuyoviga ("Avaz bolam, qizimni ko'p zor etma... urma, so'kma, o'z yurtingga xor etma" [4, Zulfizar, 217-b.]). Ushbu nasihatning pedagogik ahamiyati shundaki, u oilaviy baxtni yakka tomonning xulq-atvoriga bog'lamaydi – ikki tomonga ham aniq, o'zaro mutanosib burch yuklaydi. Nikoh nasihatining boshqa, ko'proq jamoaviy yo'naltirilgan ko'rinishini "Yunus pari" dostoni beradi: qizini Turkman eliga uzatayotgan ona, nasihatni bevosita kelinga emas, uni kuzatib borayotgan hamrohlarga qaratadi: "Rahm aylanglar Yunusjonning holiga... hech ko'nglini qoldirmay Yunusjonning, op borib qo'yinglar qayin yurtiga!" [6, 255 (elektron nusxa)-b.] – bu variant nikoh nasihatining ba'zan yakka emas, jamoaviy (hamroh-kuzatuvchilarga qaratilgan) shaklda ham berilishini ko'rsatadi, bu esa nikoh marosimining oilaviy doiradan tashqariga chiqib, kengroq ijtimoiy mas'uliyat tizimiga aylanishini tasdiqlaydi.

To'rtinchi tur – vasiyat: vafot oldi ahdnomasi. Bu tur nasihatning eng yuqori hissiy-dramatik kuchga ega turi bo'lib, qahramon yoki uning yaqini vafot oldidan beriladi va odatda majburiy, qaytarib bo'lmaydigan axloqiy buyruq shaklida ifodalanadi. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida Go'ro'g'lining otasi Ravshanbek, o'limi oldidan, o'g'liga eng qisqa, eng zich vasiyatni qoldiradi: "E, Go'ro'g'libek, qiladigan ishingni xudo o'ng'arsin! Mening nasihatim shulki, hargiz Ahmadbek otangning aytganidan chiqma, Xoljuvon enangni yig'latma! - deb vasiyat qilib, olmandan o'tdi" [7, 94-b.] – diqqatga sazovorki, matnning o'zi bu parchani aniq "vasiyat" deb nomlaydi, unda faqat ikki, ammo hal qiluvchi burch (otaga itoat, onani yig'latmaslik) qoldiriladi. "Avazxonning o'limga hukm etilishi" dostonida esa vasiyat mavzusi fojiali bo'yoq bilan boyitiladi: nohaq ayblanib o'limga mahkum etilgan bir ota o'g'liga qochish yo'lini ko'rsatadi va xiyonatkor kishilarga ishonmaslikni vasiyat qiladi: "Ilohim musofir yurti qurisin, bir tuhmatman, bolam, o'lib boraman... Turkman xalqin o'zingga do'st bilmagin" [3, 24-b.] – bu misol vasiyatning ijobiy (ota-ona itoati, oila birligi) shaklidan tashqari, ogohlantiruvchi-himoyalovchi (kimga ishonmaslik kerakligi) shaklini ham namoyish etadi.

Beshinchi tur – ustoz-shogird (bobo-nabira) nasihati: hikmat va tayyorgarlik. Bu tur nasihat yosh qahramonga uning hali to'liq anglamagan kelajak vazifasi oldidan keksaroq, ko'pincha tabiatdan tashqari kuch-qudratga ega bir ustoz-murabbiy tomonidan beriladi. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida Go'ro'g'lining bobosi, nabirasi Chambilni asos solishdan oldin, unga uzoq nasihat-bashorat beradi: "Bobosi Go'ro'g'libekka pandi nasihat berib aytdi: E Go'ro'g'libek, bolam, sen yoshlik qilding... Har nima bo'lsa, Go'ro'g'libek, farzandim, ishingga ehtiyot bo'li!" [7, 129-135-b.] – bu nasihat amaliy ogohlantirish bilan ruhiy tayyorgarlikni birlashtiradi. Nasihatning to'liq matni alohida tahlilga loyiq, chunki u yakka nasihat emas, balki davlat qurish dasturining shari'iy kodifikatsiyasini tashkil etadi. Nasihat kadrlar xiyosati bilan boshlanadi: "Har urug'dan olib kel yaxshi odamni, o'zbeklardan olib kelgin biylarni! Topib bergin ularga yaxshi uylarni! Chambilbelday qo'rg'oningga yeldirgin, ko'nglin ovlab sarpoy bergin, Go'ro'g'li!" [7, 132-b.] – bu misralar davlat qurilishining keng qamrovli, ko'p millatli va ijtimoiy adolatli tamoyillarini belgilaydi. So'ngra nasihat harbiy-strategik ko'rsatmalarga o'tadi: "Doim izzat qilgin taraflaringga, g'anim chidamasin g'ayratlaringga... Hech qochmagin, hamisha quvgin, Go'ro'g'li! Siyohpo'shni bosib so'ygin, Go'ro'g'li!" [7, 132-b.] – har misraning "Go'ro'g'li" deb xitob bilan yakunlanishi refrenga o'xshash takror orqali nasihatni xotirada mustahkam saqlashga xizmat qiladi. Nasihat yakunida esa bobo kelajakni oldindan ko'rsatuvchi bashorat shakliga o'tadi: "Vayangandan op kel Xoldor mahramni, boshliq qilgin sarkardaga Xoldorni! Xon Hasanjon o'g'ling bo'lsin, Go'ro'g'li!" [7, 131-b.] – bu nasihat-monolog mexanizmining faqat bir voqeaga emas, butun doston turkumining kelgusi syujet tizimiga ta'sir etuvchi, kompozitsion jihatdan uzoqni ko'zlovchi vosita ekanini tasdiqlaydi.

Oldinchi tur – jang oldi da'vati: jamoaviy ruhlantirish. Beshta yuqoridagi turdan farqli o'laroq, bu tur nasihat yakka shaxsga emas, jamoaga (qo'shinga) qaratilgan bo'lib, vazifasi axloqiy-amaliy ko'rsatma berishdan ko'ra, jasorat va intizomni ruhiy jihatdan mustahkamlashdir. "Avazxonning o'limga hukm etilishi" dostonida Go'ro'g'li, Rayhon arabning qo'shiniga qarshi jang oldidan, yigitlariga murojaat qiladi:

“Yigitlarim, azamatim, shuldir pandu nasihatim, bo'lmasga bo'lg'uvchi bo'lma; urushli kun qiling g'ayrat, irkilib turguvchi bo'lma!” [3, 113-114-b.] – bu parcha o'zini bevosita “pandu nasihatim” deb nomlashi orqali jangovar da'vatning ham nasihat janriga mansubligini tasdiqlaydi. Mazkur turning alohida ko'rinishini “Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi” dostoni beradi: bu yerda jangovar ruhlantirishni qo'mondon emas, Go'ro'g'lining ruhiy-homiy rafiqasi Misqol pari amalga oshiradi: “Olti laklab qo'shin kelsa ustingga, pahlavonsan, hargiz qo'rqma, Go'ro'g'li... Pirlar senga yordir, qo'rqma, Go'ro'g'li” [4, Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi, 114-b.] – bu variant jang oldi da'vatining faqat jamoaviy emas, shaxsiy-ruhiy shaklda ham amalga oshishi mumkinligini ko'rsatadi.

Yettinchi tur – o'z-o'zini tanqid va ma'naviy tayyorgarlik nasihati. Bu tur nasihatning o'ziga xosligi shundaki, u boshqa turlardan farqli o'laroq, tinglovchining aniq, maxsus so'rovi bilan chaqiriladi. Go'ro'g'li qalandar qiyofasida xatarli, yolg'iz safarga otlar ekan, Holdor mahram undan bevosita iltimos qiladi: “Qalandar bobo, endi uzoq safarga borar bo'lsangiz, menga bir nasihat qilib keting” [4, Sarvinoz, 146-b.], Go'ro'g'lining javobi esa, boshqa turlardagi nasihatlardan farqli o'laroq, tinglovchiga emas, avvalo nasihat beruvchining o'ziga qaratilgan o'z-o'zini tanqid g'oyasidan boshlanadi: “Nasihatim shudir, avval har kishi, o'z aybini o'zi bilmog kerakdir. Luqmon sifat mirishkorlik bobida, har yomondan ibrat olmoq kerakdir” [4, Sarvinoz, 146-b.]. Nasihat nihoyat ekzistensial, hayot-mamot teranligiga ega yakuniy xulosaga ega bo'ladi: “Hamma karvon navbat bilan o'tadi, ketishlikni yo'llarini tutadi, bizlarga

ham bir kun vaqt yetadi, safarga tayyor bo'p turmoq kerakdir” [4, Sarvinoz, 146-b.] – karvon timsoli orqali hayotning o'tkinchiligi va o'limga doimiy tayyor turish g'oyasi ifodalaniib, bu nasihatni oddiy safar oldi ko'rsatmasidan ko'ra teranroq, falsafiy-ekzistensial darajaga ko'taradi.

Nasihat-monologning badiiy-shakliiy xususiyatlari. Yuqorida keltirilgan barcha yetti turdagi namunalarni sinchiklab qiyoslash nasihat-monologning o'ziga xos, barqaror badiiy-shakliiy qurilishini ham ochib beradi. Birinchidan, deyarli barcha misollarda buyruq maylidagi fe'llar (“-gin”, “-mang”, “-ma”) zich klaster holida takrorlanadi: “urma, so'kma, ...xor etma” [4, Zulfizar, 217-b.], “bo'lmasga bo'lg'uvchi bo'lma... irkilib turguvchi bo'lma” [3, 113-114-b.] – bu grammatik takror nasihatni ratsional-mulohaza shaklidan ko'ra, buyruq-da'vat shakliga yaqinlashtiradi, bu esa “xulq-atvorga ta'sir etish” funksiyasining tilshunoslik darajasidagi ifodasidir [2, 64-b.]. Ikkinchidan, ko'p misollarda refrenga o'xshash takroriy murojaat kuzatiladi – “Misqol pari” nasihatida har bandning oxirida “...qo'rqma, Go'ro'g'li” iborasi qayta-qayta takrorlanadi [4, Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi, 114-b.]. Uchinchidan, nasihat-monologlar deyarli doimo murojaat etilayotgan shaxsning nomi yoki unga nisbatan mehrlil murojaat shakli (“bolam”, “chirog'im”, “farzandim”) bilan boshlanadi yoki yakunlanadi – bu shaxsiylashtirilgan murojaat nasihatning umumiy-mavhum pand emas, aniq, shaxsga qaratilgan samimiy xitob ekani haqidagi taassurotni kuchaytiradi, buni Xoliqov “dilkashlik” tushunchasi orqali izohlagan edi [2, 72-b.].

1-jadval

Nasihat-vasiyat mexanizmining yetti tipologik turi

Tur	Nasihat beruvchi → oluvchi	Murojaat yo'nalishi	Ustuvor funksiya
1	Ona → farzand (safari oldi)	Yakka	Xulq-atvor (amaliy-tezkor)
2	Hukmdor → noib (hokimiyat)	Yakka	Kognitiv-me'yoriy
3	Ota-ona → qiz/kuyov (nikoh)	Yakka/jamoaviy	Emotsional-qiymat
4	Ota → o'g'il (vasiyat)	Yakka	Emotsional-dramatik
5	Bobo → nabira (ustoz-shogird)	Yakka	Kognitiv (bashorat)
6	Qo'mondon/homiy → qo'shin (jang oldi)	Jamoaviy/shaxsiy-ruhiy	Xulq-atvor (ruhlantirish)
7	Nasihat beruvchi → o'zi	Refleksiv	Emotsional-falsafiy

Yetti turning qiyosiy tahlili. Olti doston materialini bir-biriga qiyoslash nasihat-monolog mexanizmining ichki tizimli tuzilishini yaqqol ko'rsatadi. Nasihat beruvchining ijtimoiy maqomi bo'yicha turlar ikki guruhga bo'linadi: yuqori avtoritetga ega shaxs tomonidan pastroq maqomdagi kishiga beriluvchi nasihatlar (safari oldi, hokimiyat topshirish, nikoh, vasiyat, ustoz-shogird turlari) va teng maqomdagi shaxslar orasidagi nasihatlar (jang oldi da'vati). Hissiy-funksional ustuvorlik bo'yicha esa aniq gradatsiya kuzatiladi: vasiyat eng yuqori emotsional-dramatik kuchga ega bo'lsa, hokimiyat topshirish nasihati eng yuqori kognitiv-me'yoriy zichlikka ega, jang oldi da'vati esa eng yuqori xulq-atvorga yo'naltiruvchi kuchga ega. Bu gradatsiya Xoliqovning tushuntirish-tafakkurni uyg'otish-jalb qilish modeliga [2, 176-b.] to'g'ridan-to'g'ri mos keladi: har bir tur ushbu uchlikning bir qutbiga ko'proq og'irlik beradi, ammo hech qaysi tur uchinchi komponentni butunlay yo'qotmaydi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, “Go'ro'g'li” turkumidagi nasihat-monolog mexanizmi pedagogika fanining ishonitirish metodi nazariyasi bilan nazariy jihatdan to'liq uyg'unlashadi, ammo og'zaki epik an'ana uni yozma pedagogik matndan farqli ravishda, badiiy-shakliiy vositalar (buyruq mayli klasteri, refren, shaxsiylashtirilgan murojaat) orqali kuchaytiradi. Bu holat shuni tasdiqlaydiki, xalq dostonchiligi pedagogik samaradorlikka erishish uchun nazariy jihatdan mustaqil, ammo akademik pedagogika bilan izomorf bo'lgan o'z vositalar tizimini ishlab chiqqan.

Nasihat-monolog mexanizmining ibrat-andoza (taqlid) mexanizmi bilan uzviy bog'liqligi alohida e'tiborga loyiq: Xoliqov “taqlid qilish”ni ishonitirishning uchta turidan biri sifatida sanaydi [2, 66-b.], bu esa nasihat (so'z orqali ta'sir) va ibrat (amal orqali ta'sir) mexanizmlarining yagona tizimning ikki qutbi ekani haqidagi xulosani nazariy jihatdan asoslaydi — bu bog'liqlik keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish bo'lishi mumkin.

Nasihat-monolog mexanizmining amaliy-metodik ahamiyati ham alohida ta'kidlanishi lozim: u dissertantning ishlab chiqqan o'quv-metodik tizimida “nasihat-tahlil darsi” deb nomlanuvchi mustaqil dars turning nazariy asosini tashkil etadi. Bu dars turi dostonidagi nasihat-vasiyat parchasini (masalan, Go'ro'g'lining Avazxonga “har nokasni do'st bilmagin” deb boshlanuvchi nasihat-kodeksi) o'qish, tahlil qilish va undagi axloqiy tamoyillarni o'quvchining o'z hayotiy tajribasiga nisbatlash orqali amalga oshiriladi, bu esa A.Xoliqovning ishonitirish metodi uchun ajratilgan uch bosqichli tuzilmasiga [2, 176-b.] to'g'ridan-to'g'ri mos keladi. Dars tuzilmasini loyihalashda N.Avliyakov va N.Musaevaning pedagogik texnologiya nazariyasi ham jalb qilindi: mualliflar ta'lim usullarini loyihalashda “tayyorlash, o'tkazish, tahlil qilish” kabi uch bosqichli texnologik zanjirni tavsiya qiladilar [8, 102-b.] – nasihat-tahlil darsi ham xuddi shu zanjir bo'yicha quriladi: 1) tayyorlash bosqichida o'qituvchi nasihat parchasini tanlab, uning tipologik turini (yuqoridagi yetti turdan birini) aniqlaydi; 2) o'tkazish bosqichida parcha sinfda ifodali o'qiladi va birinchi taassurot muhokama qilinadi; 3) tahlil bosqichida parchaning axloqiy-pedagogik mazmuni (qaysi komponentga – kognitiv, emotsional-qiymat yoki xulq-atvorga – ustuvor yo'naltirilgani) ochib beriladi. Bu amaliy tatbiq nasihat-monologning faqat tarixiy-adabiy hodisa emas, zamonaviy adabiy ta'lim amaliyotida qo'llanilishi mumkin bo'lgan tirik pedagogik vosita ekani haqidagi xulosani mustahkamlaydi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil “Go'ro'g'li” turkumidagi nasihat-vasiyat (didaktik monolog) mexanizmining yetti aniq tipologik turga ega ekani ko'rsatdi: 1) safari oldi nasihati; 2) hokimiyat/vazifa topshirish nasihati; 3) nikoh nasihati; 4) vasiyat; 5) ustoz-shogird nasihati; 6) jang oldi da'vati; 7) o'z-o'zini tanqid va ma'naviy tayyorgarlik nasihati. Mazkur tipologiya pedagogika nazariyasi bilan uzviy bog'liqdir: B.Ziyomuhammadovning og'zaki uslublar tasnifi va A.Xoliqovning ishonitirish hamda notiqlik san'ati uch qonuniyati nasihat-monologning kognitiv, emotsional-qiymat

va xulq-atvor funksiyalarini birlashtiruvchi to'laqonli tarbiyaviy vosita ekani haqidagi gipotezani nazariy jihatdan tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Зиёмуҳаммадов Б. Педагогика: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. - Тошкент: Турон-Иқбол, 2006.
2. Холиков А. Педагогик маҳорат: Дарслик. - Тошкент: Иқтисод-Молия, 2011.
3. Авазхоннинг ўлимга ҳукм этилиши / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли; ёзиб олувчи Ғ.Каримов; нашрга тайёрловчилар З.Хусайнова, Т.Мирзаев; масъул муҳаррир О.Собиров. - Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти.
4. Гўрўғли дostonлари: Тўрт жилдлик. 2-жилд: Авазхон / Айтувчи Раҳматулла шоир Юсуф ўғли. - 1997.
5. Гўрўғли: Ўзбек халқ дostonлари / Айтувчи Раҳматулла шоир Юсуф ўғли; нашрга тайёрловчилар Т.Мирзаев, З.Хусайнова. - Тошкент: Шарқ, 2006.
6. Юнус пари // Ўзбек халқ ижоди: Кўп томлик / Айтувчи Муҳаммадқул Жомрот ўғли Пулкан; нашрга тайёрловчи Ш.Хўжаева. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967.
7. Гўрўғлининг туғилиши // Ўзбек халқ ижоди: Кўп томлик / Айтувчи Муҳаммадқул Жомрот ўғли Пулкан; нашрга тайёрловчи М.Муродов. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967.
8. Авлиякулов Н.Х., Мусаева Н.Н. Педагогик технология. - Тошкент: Тафаккур Бўстони, 2012.